

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

TURSUNOVA MUXLISA VAXOBOVNA

**JULIAN BARNS POSTMODERNISTIK ROMANLARINING JANRIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Tursunova Muxlisa Vaxobovna

Julian Barnes postmodernistik romanlarining
janriy xususiyatlari..... 3

Турсунова Мухлиса Вахобовна

Жанровые особенности постмодернистских
романов Джулиана Барнса..... 29

Tursunova Mukhlisa Vakhobovna

Genre Features of Julian Barnes’s
Postmodern Novels..... 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

TURSUNOVA MUXLISA VAXOBOVNA

**JULIAN BARNS POSTMODERNISTIK ROMANLARINING JANRIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.2.PhD/Fil4834 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudova Nargiza Alimovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ikromxonova Feruza Ikromovna

filologiya fanlari doktori, professor

Adilova Shahnoza Raximovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “31” oktyabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Farobiy ko‘chasi, 400-uy). Tel.: (+99871) 240-08-62; faks: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 247-12-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, fil.f.d., professor

M.G‘.Rabiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.b.f.d., dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida yangicha va noan'anaviy postmodernizm oqimi yuzaga keldi. Bu oqim siyosiy-ijtimoiy, diniy, tarixiy va madaniy jabhalarga o'zining samarali ta'sirini o'tkazib, musiqa, arxitektura, falsafa, san'at, adabiyot, adabiy tanqidchilik va lingvistika kabi juda ko'plab sohalarda o'z ifodasini topdi. Postmodernizm zamonaviy adabiyotda metaadabiyot va tarixiy metaadabiyot kabi adabiy yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Metaadabiyot orqali o'z-o'zini reflektiv badiiy ifoda etish, o'z-o'ziga iqror bo'lish, adabiyotning badiiyligini oshkora namoyish etish, janrlarni bir-biriga qorishtirish kabi yangicha badiiy tamoyillar kirib keldi. Britaniyalik adib Julian Barnsning ijodi postmodernizm oqimining eng rivojlangan davriga to'g'ri keladi. Shu bois, tadqiqot ishining dolzarbligi zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy masalalari sifatida postmodernizm oqimining mazmun-mohiyatini aniqlash, uning ingliz adabiyotidagi badiiy xususiyatlarini o'rganish va Julian Barnsning bir necha postmodernistik asarlarini postmodernizm oqimining badiiy tamoyillari orqali chuqur tahlil qilish zarurati bilan bog'liq.

XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari asosiy qismini postmodernizm oqimiga mansub asarlar tashkil etadi. Postmodernizm rivojlangan davlatlar adabiyotida juda tez ommalashib takomillashib bordi va o'zining turli shakllariga ega bo'ldi. Deyarli yarim asr davomida yaratilgan adabiyotning drama, she'riyat va nasrdagi noan'anaviy asarlarning shakl hamda mazmun jihatdan taraqqiy etishi, ulardagi ustuvor yo'nalishlar va postmodern yozuvchilarning uslubi haqidagi ko'plab bahs-munozaralarning yechim topmagani, shu jumladan, Julian Barns postmodernistik asarlarining janriy tabiati yetarli darajada tadqiq etilmagani ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotshunosligida struktural, immanent, genetik, germeneytik, semiotik, intertekstual tahlil usullarini o'zbekona adabiy-ilmiy tafakkur bilan sintezlashlashtirib, jahon adabiyoti durdonalarini tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Postmodernizm oqimining taraqqiyot bosqichlarini belgilash, uning zamonaviy badiiy asarlarni tahlil qilishdagi rolini aniqlash va postmodern adiblarning poetik mahoratini ochib berish muhim ahamiyatga ega. Postmodernizmning o'zbek adabiyotida namoyon bo'lishi asnosida dunyo adabiy tafakkuriga yangicha quvvat baxsh etgan bebaho asarlar yuzaga keldi. Bugungi yoshlarning saviyasi ular mutolaa qilayotgan kitoblarga bog'liq. Shu sababli, zamonaviy asarlarni tahlil qilish va ularning badiiy-estetik mohiyati hamda ahamiyatini yoritish joiz. Zero, respublikamizda "ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish

maqsadida”¹ keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning markazida yosh avlodni bilimli, ma’rifatli qilib tarbiyalash muammosi qo‘yilib, iqtidorli yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida postmodernizmning kelib chiqishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari G‘arbning yetakchi olimlari: R.Appignanesi, J.Baudrillard, P.Brooker, Ch.Butler, L.Cahoon, T.Eagleton, B.Edwards, C.Garratt, I.Hassan, L.Hutcheon, J.Lyotard, G.Matthews, B.McHale, L.Platt, B.Nicole, J.Powell, N.Kolesnikoff, P.Waugh² tomonidan tadqiq

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5073447>.

² Appignanesi R., Baudrillard J. *Simulacra and Simulation* (Translated by Glaser Sh.F.) – Michigan: University of Michigan Press, 1994. – P. 3.; Baudrillard J. *The Consumer Society*. – London: Sage Publications, 1998. – P. ix.; Brooker P. *Modernism/Postmodernism*. – USA: Routledge, 2014. – P. 22.; Butler Ch. *Postmodernism. A Very Short Introduction*. – NY: Oxford University Press, 2002. – P. 3.; Cahoon. L.E. *From Modernism to Postmodernism: An Anthology*. – USA: Blackwell Publishers, 1996. – P. 19.; Eagleton T. *The Illusions of Postmodernism*. – UK: Blackwell Publishers Ltd, 1996. – P. vii.; Edwards B. *Theories of Play and Postmodern Fiction*. – New York and London: Garland Publishing, Inc, 1998. – P. 17.; Garratt C. *Introducing Postmodernism*. – UK: Icon Books Ltd, 1999. – P. 4.; Hassan I. *The Dismemberment of Orpheus Toward a Postmodern Literature*. – US: University of Wisconsin Press, 1982. – P. 261.; Hassan I. *The Postmodern Turn. Essays in Postmodern Theory and Culture*. – US: Ohio State University Press, 1987. – P. 85-86.; Hassan I. *The Question of Postmodernism // Performing Arts Journal*, 1981. Vol. 6. No. 1. – P. 31.; Hutcheon L. *A Poetics of Postmodernism*. – USA: Routledge, 1988. – P. ix.; Lyotard J.F. *Postmodern Condition. A report on Knowledge*. Translated by Bennington G., Massumi B. – UK: Manchester University Press, 1984. – P. 3.; Matthews G. *Ethics and Desires in the Wake of Postmodernism: Contemporary Satire*. – UK: Bloomsbury Academic, 2012. – P. 12.; McHale B. *The Cambridge Introduction to Postmodernism*. – UK: Cambridge University Press, 2015. – P. 15.; McHale B., Platt L. *The Cambridge History of Postmodern literature*. – USA: Cambridge University Press, 2016. – P. 43.; McHale B. *The Cambridge Introduction to Postmodernism*. – UK: Cambridge University Press, 2015. – P. 15.; Nicole B. *The*

qilingan va Julian Barnsning ijodi esa P.Childs, A.Dalton, V.Guignery, M.Moseley³ tomonidan adabiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Rus olimlari I.Avramenko, N.Bochkareva, L.Bratuxina, V.Byachkova, K.Zagorodneva, I.Novokreshennix, B.Proskurnin, S.Strinyuk, I.Suslova., M.Chernyak, M.Sargesyan, I.Ilin, M.Lipovetskiy, I.Skoropanova, V.Kuritsin, M.Epshteyn, O.Djumaylo, N.Mankovskaya, N.Kireyeva⁴ tomonidan postmodernistik adabiyoti, uning ingliz adabiyotiga xos xususiyatlari va Julian Barns romanlarining badiiyati tadqiq etilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida so‘nggi o‘n yillarda postmodernizm yo‘nalishida betakror san‘at asari yaratayotgan adiblar ijodiga qiziqish yanada ommalashdi. Uning tadqiqiga yo‘naltirilgan ilmiy-ijodiy izlanishlar ko‘lami kengayib, S.Quronov, U.Hamdami, Q.Yo‘ldoshev, S.Kamilova, M.Nizamova, F.Xajiyeva, D.Asadovani⁵ maqola va o‘quv qo‘llanmalarida modernizm, postmodernizm kabi oqimlar, ularning xarakterli xususiyatlari, postmodernizm adabiyoti namoyandalari va ularning postmodernistik asarlaridagi ustuvor g‘oyalar haqida qimmatli nazariy ma‘lumotlar keltirilgan. Ammo mazkur tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ingliz postmodernistik adabiyoti, uning o‘ziga xos badiiy-estetik tomonlari, taniqli namoyandalari va ularning ishlari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Qolaversa, zamonaviy ingliz adabiyotining yetuk namoyandasi Julian Barnsning asarlari badiiyati yaxlit estetik jihatdan o‘rganilmagan. Postmodernizm

Cambridge Introduction to Postmodern Fiction. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 51.; Powell J. Postmodernism. For Beginners. – NY: Writers and Readers Publishing, 1998. – P. 4.; Kolesnikoff N. Russian Postmodernist Metafiction. – GB: The British Library, 2011. – P. 31.; Waugh P. Metafiction. Theory and Practice of Self-Conscious Fiction. – London: Routledge, 1984. – P. 2.

³Childs P. Julian Barnes. Contemporary British novelists. – UK: Manchester University Press, 2011. – P. 7.; Dalton A.G. Julian Barnes and the Postmodern Problem of Truth, 2008. – P. 47.; Moseley M. Understanding Julian Barnes. – US: University of South Carolina, 1997. – P. 11.; Guignery V., Roberts R. Conversations with Julian Barnes. – US: The University Press of Mississippi, 2011. – P. 11.; Guignery V. The Fiction of Julian Barnes. – England: Palgrave Macmillan Ltd, 2006. – P. 1.

⁴Бячкова В.А., Загороднева К.В., Новокрещенных И.А., Прокурнин Б.М., Стринюк С.А., Сулова И.В. История зарубежной литературы. Современная английская литература: Учебное пособие. – Пермь: Пермский государственный национальный исследовательский университет, 2018. – С. 3.; Черняк М.А., Саргсян М.А. Метапрозаические стратегии в современной прозе // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. – Пермь, 2020. – Т. 12, вып. 2. – С. 130-138.; Илин И. Постмодернизм. Словарь терминов. – М.: Интрада, 2001. – С. 209.; Липовецкий М.Н. Русский постмодернизм (Очерки исторической поэтики): Монография. Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 1997. – С. 317.; Скоропанова И.С. Русская постмодернистская литература. Учеб. пособие. 3-е изд., изд., и доп. – М.: Флинта: Наука, 2001. – С. 608.; В.Курицын. Русский литературный постмодернизм. – М.: О.Г.И., 2000. – С. 288.; Джумайло О.А. Английский исповедально-философский роман 1980-2000 гг. – Ростов-на-Дону., 2014. – С. 152-153.; Эпштейн М. Постмодерн в России. Литература и теория. – М.: Издание Р.Элинина, 2000. – С. 368.; Киреева Н.В. Постмодернизм в зарубежной литературе. – Москва: Флинта, 2014. – С. 4.; Маньковская Н.Б. Эстетика постмодернизма. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2000. – С. 317.

⁵Hamdamov U. Modernizm. Postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 48.; Quronov S. Postmodern olamda manzil izlab // Tafakkur. – Toshkent, 2013. – № 3 (URL: <https://quronov.uz/postmodern-olamda-manzil-izlab> Murojaat sanasi 13.04.2024.); Yo‘ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar (URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/qozoqboy-yuldosh-postmodernizm-mohiyat-ildizlar-va-belgilar> Murojaat sanasi 01.04.2024.); Kamilova S.Э. Категория жанра в современном литературоведении (состояние вопроса) // Хорижий филология. – Самарканд, 2020. – № 4. – С. 36-44.; Низамова М. «Артур и Джордж» Дж.Барнса как опыт постмодернистской литературной биографии // Сборник НУУз., 2021. – № 1.; Xajiyeva F. Amerika postmodern adabiyotida biografik roman poetikasi (J.Parini, M.Kanninghem va L.Lalami asarlari misolida). – Buxoro, 2022. – B. 173.; Asadova D. Postmodernizm konsepsiyasi va tamoyillari // Oriental Renaissance: Innovative, educational and social sciences. – Toshkent, 2023. – № 6.

oqimining adabiyot sahnasiga kirib kelganligiga yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, taassufki, o‘zbek adabiyotshunosligiga oid lug‘at va kitoblarda bu oqimning ko‘lami, janr va rivoya xususiyatlari keng e‘tirof etilmagan. Shu sababli, o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida “postmodernizm” nazariyasini izchil o‘rganish, postmodernist romannavis Julian Barns asarlarining janriy, badiiy va estetik xususiyatlarini belgilash yangi tadqiqotlarga yo‘l ochadi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan “fabulyatsiya”, “o‘z-o‘zini refleksiv badiiy ifoda etish”, “o‘z-o‘ziga iqror bo‘lish”, “beqaror roviy”, “simulyakra va simulyatsiya”, “postmodernistik adabiy biografiya”, “postmodernistik tarbiya romani”, “postmodernistik tarixiy metaadabiyot”, “postmodernistik iqrornoma romanlar” kabi atamalar Julian Barns asarlari misolida o‘zbek tilidagi adabiy lug‘atlarga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy ingliz yozuvchisi Julian Barnsning postmodernistik romanlaridagi janriy xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jahon adabiyotida postmodernizm oqimining taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qilib, uning o‘ziga xos tomonlarini belgilash;

Ingliz postmodernizmining badiiy-estetik xususiyatlarini va Julian Barnsning postmodernizm estetikasi silsilasidagi rolini aniqlash;

Julian Barnsning tarixiy metaromanlarida hayotiy haqiqat va badiiy to‘qimaning poetik ifodasini tahlil qilish;

Julian Barns ijodida an’anaviy janrlardagi shakliy va mazmuniy aspektlarning transformatsiya usullari hamda yangilanishini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti. Julian Barnsning ijodi, xususan, postmodernistik romanlari: “Metroland” (“Metrolend”, 1980), “Flaubert’s Parrot” (“Flobbering to‘tiqushi”, 1984), “A History of the World in 10 ½ Chapters” (“Dunyo tarixi 10 ½ bobda”, 1988), “England, England” (“Angliya, Angliya”, 1998) va “The Sense of an Ending” (“Oxirat hissi”, 2011).

Tadqiqotning predmetini Julian Barns postmodernistik romanlarining turlari, janr dinamikasi va tabiati hamda badiiy-estetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-madaniy, biografik, tipologik, yaxlit estetik yondashuv va postmodernizmning janr tahlili tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

postmodernizmning tadrijiy taraqqiyot bosqichlari (fundamental shakllanish, ommalashish, yuksalish va susayish) hamda poetik xususiyatlari tahlili asosida zamonaviy ingliz postmodernistik romanlarida postkolonializm va multikulturalizm, feminizm, maskulin ustuvorlik, gender va jinsiy tenglik, “oliy” hamda ommaviy madaniyat, (“neo-” ko‘rinishdagi) obyektiv va subyektiv

madaniyat, xotira, o‘tmish va tarix, postmodernizm va realizm o‘rtasidagi tafovutni o‘zida aks ettiruvchi tendensiyalar hamda xususiyatlar mavjudligi isbotlandi;

voqealar oqimining mantig‘i, asar tuzilishi, arxitektonikasi, voqealar rivoji va yechimi, obrazlar ko‘lami, g‘oya, mazmun-mohiyat va unga mos ravishda tanlangan badiiy izlanishlar hamda poetik mahorat tahlili natijasida postmodernistik badiiy asarlarning janriy xususiyatlari aniqlanib, talqin etishda ahamiyatli bo‘lgan romanlarning mavzuviy va shakliy tasnifi ishlab chiqildi;

Julian Barns ijodida metaromanlar turlari, ularning o‘ziga xos janr dinamikasi va postmodern rivoya strategiyalarini tadqiq etish asosida *“fabulyatsiya”*, *“o‘z-o‘zini refleksiv badiiy ifoda etish”*, *“o‘z-o‘ziga iqror bo‘lish”*, *“beqaror roviy”*, *“badiiy sukunat”*, *“postmodernistik adabiy biografiya”*, *“postmodernistik tarbiya romani”*, *“postmodernistik tarixiy metaadabiyot”*, *“postmodernistik iqrorнома romanlar”* kabi adabiy kategoriyalar nazariy dalillandi;

universallik va individuallik tamoyillari negizida adib qalamiga mansub postmodernistik asarlarning yetakchi xususiyatlari aniqlik hamda yaxlitlikda ijodkor g‘oyaviy maqsadini ifodalashga xizmat qilishi isbotlanib, an‘anaviy va dekonstruksiya uchragan romanlar misolida an‘ana hamda transformatsiya hodisasining nazariy xususiyatlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

postmodernizmning tadrijiy taraqqiyoti va poetik xususiyatlari tahlili asosida zamonaviy ingliz postmodernistik romanlarida aks ettirilgan postkolonializm, multikulturalizm, feminizm, gender va jinsiy tenglik kabi masalalarning aniqlanishi bilan adabiy janrlarni o‘rganish uchun amaliy tavsiyalar taqdim etilgan. Ushbu yondashuvlar adabiy jarayonlarga yangicha qarash imkoniyatini yaratadi;

adabiy oqimlar, asar tuzilishi, arxitektonikasi, obrazlar ko‘lami va poetik mahorat tahlili natijalari postmodernistik badiiy asarlarni mavzuviy hamda shakliy jihatdan tasniflash haqida chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, ingliz adabiyoti kabi fanlar bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammalashuviga xizmat qilishi asoslangan. Bu esa ta‘lim jarayonida adabiy tahlilni o‘rgatishda o‘quvchilar va tadqiqotchilar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi;

tadqiqot natijalari adabiy tanqidchilik bo‘yicha yozilgan darslikning mazmunini boyitishga xizmat qildi. Xususan, postmodernizmga oid yangi adabiy kategoriyalar va uslublarni o‘quv materiallariga kiritish orqali ta‘lim jarayonini yanada samarali qilishga erishildi;

tadqiqotda aniqlangan amaliy natijalar adabiy asarlarni tahlil qilishda ijodkorlikni rivojlantirish va tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar uchun yangi yo‘nalishlarni ochib beradi. Bu esa ilmiy va ijodiy faoliyatni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan postmodernistik romanlarining tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar tarixiy-madaniy, yaxlit estetik hamda postmodernizm tahlil usullari bilan asoslangani, nazariy qarashlar va

xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar jahon adabiyoti, zamonaviy ingliz adabiyoti, Julian Barns ijodi, postmodernizm oqimi va uning mohiyati, postmodernistik romanlar va ularning badiiy ahamiyati yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytirishi, shuningdek, postmodernizm va Julian Barns ijodi tadqiqiga oid ilmiy ishlarni olib borish amaliyotida keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati postmodernistik romanlar badiiyati va uning nazariy xulosalaridan "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti", "Adabiy-badiiy tahlil metodlari", "Adabiy tanqidchilik tarixi", "Qiyosiy adabiyotshunoslik" va "Adabiy oqimlar evolyutsiyasi" fanlari bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishda hamda darslik, o'quv qo'llanmalari, majmua, lug'atlar yaratishda; doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr ilk choragida ingliz adabiyotida xususan Julian Barnsning postmodernistik romanlaridagi xususiyatlar bilan bog'liq ilmiy natijalar asosida:

postmodernizmning fundamental shakllanish, ommalashish, yuksalish va susayish kabi tadrijiy taraqqiyoti, poetik xususiyatlari tahlili negizida zamonaviy ingliz postmodernistik romanlarida postkolonializm va multikulturalizm, feminizm, maskulin ustuvorlik, gender va jinsiy tenglik, "oliy" va ommaviy madaniyat, ("neo-" ko'inishdagi) obyektiv hamda subyektiv madaniyat, xotira, o'tmish va tarix, postmodernizm hamda realizm o'rtasidagi tafovutni o'zida aks ettiruvchi tendensiyalar va xususiyatlar mavjudligi isbotlangani borasidagi xulosalardan 1683580 raqamli Britaniya Kengashi (British Council) ko'magida amalga oshirilayotgan "Ingliz tili maktab fani sifatida: boshlang'ich maktab o'qituvchilarining ilg'or tajribalarni o'rganish" xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil, 11-oktyabrdagi 01/582-son ma'lumotnomasi). Natijada Julian Barnsning postmodernizm oqimida yaratilgan ijod namunalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda postmodernistik romanlarni tahlil qilishning metodologik tamoyillariga oid ma'lumotlar loyiha doirasida yaratilgan o'quv-metodik majmualarning mazmun-mohiyatini boyitishga xizmat qilgan;

voqealar oqimining mantig'i, asar tuzilishi, arxitektonikasi, voqealar rivoji va yechimi, obrazlar ko'lami, g'oya, mazmun-mohiyat va unga mos ravishda tanlangan badiiy izlanishlar hamda poetik mahorat tahlili natijasida postmodernistik badiiy asarlarning janriy xususiyatlari aniqlanib, talqin etishda ahamiyatli bo'lgan romanlarning mavzuviy va shakliy tasnifi ishlab chiqilganiga oid nazariy ma'lumotlardan A-1-61 raqamli Erasmus+ dasturining "ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419" nomli xalqaro amaliy loyihada samarali

foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 11-oktyabrdagi 01/584-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha mazmuni takomillashtirilib, Julian Barns postmodernistik romanlarining badiiy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyati yuzaga kelgan;

Julian Barns ijodida metaromanlar turlari, ularning o‘ziga xos janr dinamikasi va postmodern rivoya strategiyalarini tadqiq etish asosida “fabulyatsiya”, “o‘z-o‘zini reflektiv badiiy ifoda etish”, “o‘z-o‘ziga iqrar bo‘lish”, “beqaror roviy”, “badiiy sukunat”, “postmodernistik adabiy biografiya”, “postmodernistik tarbiya romani”, “postmodernistik tarixiy metaadabiyot”, “postmodernistik iqromoma romanlar” kabi adabiy kategoriyalar nazariy dalillangani xususidagi ma’lumotlardan “History of Literary Criticism” nomli darslik (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 6-iyuldagi “275”-raqamli nashr ruxsatnomasi)da foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 30-yanvardagi 02-01/442-son ma’lumotnomasi). Natijada darslikdagi postmodernizm oqimiga oid mavzular tizimli tarzda takomillashtirilgan;

universallik va individuallik tamoyillari negizida adib qalamiga mansub postmodernistik asarlarning yetakchi xususiyatlari aniqlik hamda yaxlitlikda ijodkor g‘oyaviy maqsadini ifodalashga xizmat qilishi isbotlanib, an’anaviy va dekonstruksiya uchragan romanlar misolida an’ana hamda transformatsiya hodisasining nazariy xususiyatlari asoslangan xulosalardan “English textbook for cadets” nomli darslikda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Harbiy kadrlarni tayyorlash bo‘limining 2025-yil 22-avgustdagi 10/1903-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan yangi avlod o‘quv adabiyotlarining mazmun-mohiyatini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta, jumladan, 7 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 176 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo‘llanilgan metodlar, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Ingliz adabiyotida postmodernistik roman janrining rivojlanishi va uning badiiy-estetik xususiyatlari**” deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi faslida jahon adabiyotida postmodernizm oqimining taraqqiyot bosqichlarini belgilash hamda postmodernizm adabiyotining o‘ziga xos falsafiy va badiiy-estetik tamoyillarini ochib berish maqsadida g‘arb adabiyotshunosligiga oid bir qator ilmiy-tanqidiy manbalar umumlashtirilib, bu oqimning taraqqiyoti tadrijiy jihatdan to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Postmodernizm oqimining tadrijiy bosqichlari.

1940-50-yillar postmodernizmning ilk tadrijiy bosqichidir. B.Nikol “Kembridj postmodernizm adabiyotiga kirish” qo‘llanmasida “1950-yillarni postmodernizm adabiyotining shakllanish davri”⁶ deb baholaydi. Bunga sabab, ilk bor modernizmga xos bo‘lmagan badiiy uslubda S.Bekket, X.Borxes va U.Berrouz kabi taniqli dramaturg hamda yozuvchilar tomonidan asarlar yaratilganligidadir. Ularning asarlarida tasvirlangan chuqur ijtimoiy va ruhiy tanazzul, postmodernizm oqimining shakllanishida muhim omil sifatida xizmat qildi. Chunki postmodernizmga “Zamonamizning eng chuqur ruhiy va falsafiy inqiroziga bo‘lgan munosabat”⁷ sifatida rivojlangan oqimdir degan ta’rif keltiriladi. Ikkinchi davr – 1960-70-yillarni postmodernizmning tom ma’nodagi ommalashish davri deb baholash mumkin. 1960-yillarda “rivojlangan davlatlar madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan tanqidiy yozishmalarga berilgan umumiy tasviriy xulosalar”⁸ postmodern yoki postmodernizm nomi ostida yuritila boshlandi. Bu davrda ommaviy axborot vositalarining taraqqiyoti va uning ta’siri ostida rivojlanayotgan iste’mol jamiyatlarning shakllanishi T.Pinchon hamda D.Delilo singari bir necha postmodernist yozuvchilar tomonidan tanqidiy yoritilgan. J.Derridaning “dekonstruksiya” (deconstruction) strategiyasi bu davrga kelib postmodernizmning rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Postmodernizm adabiyotida dekonstruksiya hayotga (butun borliqqa) matn, belgi va ko‘chirmalar yig‘indisi sifatida qarab ular (matn)ning ichki imkoniyatlarini aniqlash orqali, ulardagi muallif va kitobxonga qorong‘u bo‘lgan, ammo tabiiy ravishda so‘zlarda saqlanib qolgan obyektiv mantiqqa tayangan holda ma’lum bir mafkuralardan xoli irratsional mazmunni va “yangi ma’no”ni yaratishni ifodalovchi nazariy tushuncha⁹dir.

Postmodernizmning uchinchi – yuksaklik pog‘onasi, J.Liotar va J.Bodriyar nomlari bilan bog‘liq. Liotar “postmodernizm hodisasi”¹⁰ga kengroq to‘xtalib, “rivojlanish cho‘qqisiga yetgan jamiyatlarda ilmning holatini postmodernizm hodisasi”¹¹ deya ta’riflaydi. Olim postmodernizm adabiyotida yuqoridagi kabi omillar sabab mutlaq haqiqatga asoslangan “katta hikoyalar”ga (grand narratives) bo‘lgan ishonchsizlik yoki skeptisizm (“Incrudulity towards metanarratives”)¹² kayfiyatining rivojlanganligini bayon qiladi. Demak, Liotarning qarashlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak postmodernizm oqimi – bu postmodernizm davrida ustuvorlik qilgan postmodernizm hodisasini o‘zida aks ettiruvchi badiiy estetik tamoyillar majmuidir. O‘z o‘rnida postmodernizm “muayyan tarixiy davrga ishora qilib klassik haqiqat, aql-idrok, shaxsiy o‘ziga xoslik, obyektivlik, ommaviy taraqqiyot shuningdek, yagona uslubda, yaxlit tasvir mezonlarida va katta

⁶ Nicole B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 51.

⁷ Powell J. Postmodernism. For Beginners. – NY: Writers and Readers Publishing, 1998. – P. 4.

⁸ Brooker P. Modernism/Postmodernism. – USA: Routledge, 2014 – P. 22.

⁹ Yo‘ldosh Q. Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016. – B. 279-281.

¹⁰ Yo‘ldosh Q. Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016. – B. 278.

¹¹ Lyotard J.F. Postmodern Condition. A report on Knowledge. Translated by Bennington G., Massumi B. – UK: Manchester University Press, 1984. – P. 3.

¹² Lyotard J.F. Postmodern Condition. A report on Knowledge. Translated by Bennington G., Massumi B. – UK: Manchester University Press, 1984. – P. 22.

hikoyalarni bayon qilishda erkinlik tushunchalariga shubha bilan qaraydigan fikrlash uslubini”¹³ o‘zida aks ettiradi.

Shu yillarda ikki yirik tanqidchi olimlar P.Vo va L.Hatchin metaadabiyotning nazariy asoslarini yaratdilar hamda shu yo‘l bilan postmodernizmni oqim sifatida keyingi bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldilar. “Metaadabiyot adabiyotni inson salohiyati mahsuli sifatidagi mavqeyini va badiiy voqelik hamda hayotiy voqelik o‘rtasidagi munosabatlarning ahamiyatini namoyish qilishda qo‘llaniladigan atamadir”¹⁴ – deydi Vo. Metaadabiyot adabiyot haqidagi mulohazalarga asoslangan “badiiy adabiyot shakli”¹⁵ bo‘lib uning aynan “badiiyligiga va to‘qimaliligiga urg‘u beradi”¹⁶. Demakki, metaadabiyot “haqiqiy borliq va badiiy to‘qima o‘rtasidagi bog‘liqlikka ongli hamda tizimli ravishda katta e‘tibor qaratishni nazarda tutuvchi asarlar”¹⁷ sifatida ta‘riflanadi. V.Nabokovning ilk marotaba “*unreliable narrator*”¹⁸ (“beqaror roviy”, tarjima o‘zimizniki – MT) orqali o‘z asarlarini yoritgan muallif hisoblanadi. Beqaror roviy aynan yolg‘on to‘qib chiqaruvchi emas balki “keksalik, manmanlik, adovat, ruhiy holatidagi biror bir noqislik sabab asar voqealarini noto‘g‘ri talqin qilishga moyil hikoyachi”¹⁹ hisoblanadi. Shubhasiz, bunday badiiy tasvir vositalari metaadabiyotning postmodernizmning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida taraqqiy qilishiga olib keldi. L.Hatchin o‘zining “Postmodernizmning badiiyati” (1988) nomli adabiy-tanqidiy asarida “tarixiy metaadabiyot”²⁰ (*historiographic metafiction*)²¹ atamasiga asos soladi va postmodernizm adabiyotida juda katta munozaralarga sabab bo‘layotgan barcha asarlarni tarixiy metaadabiy asarlar ekanligini ta‘kidlaydi. Hatchinning nazdida “tarix konsepsiyasi metaadabiyotning asosini tashkil etadi”²². Tarixiy metaadabiyot intertekstuallik, o‘z-o‘zini reflektiv badiiy ifoda etish, parodiya, pastish (stilizatsiya), o‘z-o‘ziga iqror bo‘lish, kinoya, fragmentatsiya va yana bir qator badiiy tamoyillar bilan xarakterlanadi. Postmodernizmning so‘nggi bosqichi 2000-yillardan hozirgi kunga qadar bo‘lgan vaqtga to‘g‘ri kelib bu davrda oqimda sustlashish kuzatildi. A.Kirbi “Postmodernizmning o‘limi” adabiy tanqidiy risolasida postmodernizmning oqim sifatida yakunlanganligini e‘tirof etadi²³. Bunga metaadabiyot unsurlarining ayrim holatlardagina ko‘zga tashlanayotganligi, postmodernistlar tomonidan olqishlangan kinoyaviy yondashuvlar, ilmga bo‘lgan cheksiz intilishlar, so‘z o‘yinlari va tarixga bo‘lgan tanqidiy qarashlarning o‘z o‘rnini o‘n birinchi sentyabr voqealarining keskin ta‘siri sabab beparvolik, keskin

¹³ Eagleton T. The Illusions of Postmodernism. – UK: Blackwell Publishers Ltd., 1996. – P. vii.

¹⁴ Waugh P. Metafiction. Theory and Practice of Self-Conscious Fiction. – London: Routledge, 1984. – P. 2.

¹⁵ <https://en.wiktionary.org/wiki/metafiction>

¹⁶ Baldick C. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – NY: Oxford University Press, 2001. – P. 151.

¹⁷ Waugh P. Metafiction. Theory and Practice of Self-Conscious Fiction. – London: Routledge, 1984. – P. 2.

¹⁸ Nicole B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 82.

¹⁹ Nicole B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 82.

²⁰ Xajiyeva F. Amerika postmodern adabiyotida biografik roman poetikasi (J.Parini, M.Kanninghem va L.Lalami asarlari misolida). – Buxoro, 2022. – B. 28.

²¹ Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism. – USA: Routledge, 1988. – P. 5.

²² Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism. – USA: Routledge, 1988. – P. 90.

²³ [http://www.emerymartin.net/FE503/Week10/The Death of Postmodernism And Beyond-Kirby.pdf](http://www.emerymartin.net/FE503/Week10/The%20Death%20of%20Postmodernism%20And%20Beyond-Kirby.pdf)

xavotirli kayfiyat va fanatizmga bo'shatib berganligini sabab qilib ko'rsatadi hamda shu tariqa "*post-postmodernizm*"²⁴ davri boshlanganligini e'tirof etadi.

Bobning ikkinchi fasli "**Ingliz postmodernistik romanlarining badiiy xususiyatlari**" deb nomlanib unda postmodernizmning ingliz adabiyotidagi xususiyatlari zamonaviy ingliz adabiyotidagi tendensiyalarni bir necha mazmuniy guruhlarga ajratgan holda tahlil qilindi:²⁵ *postkolonializm va multikulturalizm; feminism, maskulin ustuvorlik, gender va jinsiy tenglik; xotira, o'tmish va tarix; "ommaviy" va "oliy madaniyat"lar qorishuvi; ("neo" ko'rinishdagi) obyektiv va subyektiv madaniyat; postmodernizm va realizm o'rtasidagi tafovut;*

Britaniya adabiyotida 1960-yillar – jamiyatning nafaqat o'tmish haqidagi tasavvurlariga, balki ayni damdagi ustuvor g'oyalarga va kelajak, ya'ni XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi hayotiy konsepsiyalariga qattiq ta'sir o'tkazgan, o'zi esa butunlay miqlarga burkangan keskin burilish davri sifatida ta'kidlanadi. Adabiyotning voqelik va umuman borliqni to'laqonli ma'no va mazmun kasb etgan holda ifoda eta olmasligi sabab kelib chiqqan yangicha tanazzulni o'zining so'z o'yinlari bilan jiddiy tadqiq qilishni maqsad qilgan postmodernizm Britaniya adabiyotida aynan 60-yillarda paydo bo'lganligi²⁶ juda ko'p tanqidchilar tomonidan e'tirof etiladi. 1970-1990-yillarning shu kabi masalalari bir qator ingliz yozuvchilarining asarlarida badiiyatning yangi istiqbollari ochib berdi²⁷. 1970-yillar feministik metaadabiyotning ommalashishiga o'tgan o'n yillikning yirik adibasi britaniyalik D.Lessingning sarmahsul ijodi sabab bo'lganligi ta'kidlanadi. D.Lessingning "The Golden Notebook" ("Tilla Daftar", 1962) va "The Children of Violence" (Zo'ravonlik bolalari, 1952-69) asarlari qahramonlari hayotdan, borliqdan va jamiyki reallikdan "yangilik" izlaydilar. Ular o'z asarlarida ayollarning oiladagi va umuman jamiyatdagi rolini yaxshilash, ularning shaxsiy va kasbiy layoqatlarga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, bu boradagi cheklovlarni bekor qilish, jinsiy tenglikni ta'minlash va buni qonuniy yo'llar bilan mustahkamlash masalalarini ko'tarib chiqishgan edi.

Postmodernizmدا uzviylik kasb etuvchi intertekstuallik va ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllangan madaniyatlarning turli ko'rinishlari (madaniy mediallik) 1980-2000-yillarda D.Loju, A.Bayet va U.Self kabi bir necha adiblarning asarlarida o'ziga xos tarzda aks ettiriladi. Uil Selfning "Dorian" ("Dorian", 1981) asari Oskar Uaildning estezizm yo'nalishida yozilgan "Dorian Greyning portreti" asarining postmodernistik imitatsiyasi sifatida e'tirof etiladi.

Binobarin 1970-yillar oxiri va 2000-yillar boshigacha bo'lgan davrda Britaniya postmodernizmining badiiy estetikasi realizmdan o'zining quyidagi

²⁴ McHale B., Platt L. The Cambridge History of Postmodern literature. – USA: Cambridge University Press, 2016. – P. 404.

²⁵ Авторский коллектив: Авраменко И.А., Бочкарева Н.С., Братухина Л.В., Бячкова В.А., Загороднева К.В., И.А.Новокрещенных, Б.М.Проскурнин, С.А.Стринюк, И.В.Суслова. История зарубежной литературы. Современная английская литература. – Пермь: ПГНИУ, 2018. – С. 3.

²⁶ Groes S. British Fiction of the Sixties. The Making of the Swinging Decade. – UK: Bloomsbury, 2016. – P. 4.

²⁷ Benteley N. Contemporary British Fiction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2008. – P. 96.

xususiyatlari bilan ajralib turadi²⁸: *kinoyali soʻz oʻyinlari, hayotiy reallikdan matnning ustuvorligi, intertekstuallik va ommaviy axborot vositalari taʼsirida shakllangan madaniyatlarning turli koʻrinishlari (madaniy mediallik), muallif niqobi fenomeni, oʻyin va karnavallik, ommaviy va elitar adabiyotda adabiy janr kodlaridan keng foydalanilganligi, oliy madaniyatlar tili va uslublaridagi plyuralizm hamda ulardagi barqaror muvozanat.* M.Emis “The Rachel Papers” (“Reychel haqida eslatmalar”, 1973) asarida kinoyali soʻz oʻyinlari va hayotiy reallikdan matnning ustuvorligini namoyish etish orqali ingliz adabiyotida postmodernizmning adabiy oqim sifatida rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi. Uning “The Pregnant Widow” (“Homilador beva”, 2010) asari postmodernizmning oʻz-oʻzini badiiy refleksiv ifoda etish xususiyati asnosiga qurilgan syujet orqali qahramonni oʻz “ichki men”ini topishga undaydi. Asar postmodernistik iqromoma roman²⁹ sifatida talqin qilinib, postmodernistik jamiyatlarda jinsiy munosabatlarga boʻlgan revolyutsion yondashuvlar kulminatsiyasida tovba tushunchasiga chuqurroq urgʻu beradi.

Ingliz adabiy postmodernizmini uning oʻziga xos badiiy oʻyin va karnavalliksiz (carnavalesque) tasavvur qilish imkonsiz. Oʻyin va karnavallik maʼlum bir ijtimoiy cheklovlar, chegaralar va insonning ichki xarakteriga xos tortinchoqlik kabi xususiyatlarni yengib ochiq-oydin erkinlik hamda unga imkon yaratishga boʻlgan urinishlardir³⁰. Britaniyalik yozuvchi Y.Makuenning “Comfort of the Strangers” (Begonalar topgan qulaylik, 1990) romanida xuddi shunday chegara va odob-axloq normalarini “yengib oʻtish”ga³¹ harakat qilgan qahramonlarning oxir oqibat shavqatsizlik hamda jinoyatga botib ketishgani tasvirlangan boʻlsa, S.Frayning – “The Liar” (Yolgʻonchi, 1991) romanida yolgʻon gapirishni yaxshi koʻradigan, har doim, har daqiqada, har joyda faqat yolgʻon gapiradigan hamda bundan faqat zavq oladigan obraz Edrien Heylining qilmishlari bayon qilinadi.

1980-yillarda ingliz postmodernizmi ommaviy va elitar adabiyotda adabiy janr unsurlarini aralashtirib keng foydalanilganligi bilan ajralib turadi. Ommaviy axborot vositalarida “mifga asoslangan goʻzallik normalari”ning ommalashtirilishi bir qadar ijtimoiy keskinliklarni keltirib chiqaradi va shu davrda yaratilgan bir necha badiiy asarlarda postfeminist yozuvchilar tomonidan qattiq tanqid qilinadi. Bunday goʻzallik meʼyorlari zamonaviy ingliz adibasi H.Fildingning “Bridget Jones’s Diary” (Brijit Jonsning kundaligi, 1996) asarida oʻziga xos tarzda ochib beriladi. Qolaversa, xotira, oʻtmish va tarix zamonaviy ingliz postmodernizm nasrining fundamental asosi boʻlib xizmat qildi. Zamonaviy postmodernizm adabiyotini oʻtmish hikoyalarga murojaat

²⁸ Авторский коллектив: Авраменко И.А., Бочкарева Н.С., Братухина Л.В., Бячкова В.А., Загороднева К.В., И.А.Новокрещенных, Б.М.Проскурнин, С.А.Стринюк, И.В.Суслова. История зарубежной литературы. Современная английская литература. – Пермь: ПГНИУ, 2018. – С. 7.

²⁹ Джумайло О.А. Английский исповедально-философский роман 1980-2000 гг. – Ростов-на-Дону, 2014. – С. 152-153.

³⁰ Edwards B. Theories of Play and Postmodern Fiction. – New York and London: Garland Publishing, Inc., 1998. – P. 17.

³¹ Badugu N. A heap of postmodern strategies: a study of postmodern elements in the novels of the comfort of Strangers and the Child in Time of Ian McEwan // Research Journal of English, 2022. Vol. 7. Iss. 4. – P. 128-136.

qilib ularni qaytadan yozishga bo‘lgan urinish³² deya baholash mumkin. Bu, o‘z navbatida, tarixiy metaadabiyotning ingliz postmodernizmining asosiy ko‘rinishi sifatida rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Tarixiy metaadabiyot ingliz adabiyotiga J.Faulzning “The French Lieutenant’s Woman” (Fransuz leytenantining ayoli, 1969) romani bilan kirib keldi. Muallif asarda Viktorian davri qadriyatlarini g‘alvirdan o‘tkazib ularning asosan ko‘r-ko‘ronalikka asoslanganligini fosh qiladi. P.Ekroydning asarlarida ham tarix va o‘tmish konsepsiyalariga bo‘lgan qarashlar o‘z aksini topgan. Muallifning “The Great Fire of London” (“Londonning eng katta yong‘ini”, 1982), “The Last Testament of Oscar Wilde” (“Oskar Uayldning so‘nggi vasiyatnomasi”, 1983) va “The Fall of Troy” (“Troyaning qulashi”, 2006) kabi romanlarni shunday badiiy asarlar sifatida ko‘rsatish mumkin.

Demak, ingliz postmodernistik romanlarining badiiy o‘ziga xosligi mazmun va shaklning dialektik munosabatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ingliz postmodernistik romanlarida postkolonializm va multikulturalizm, feminizm, maskulin ustuvorlik, gender va jinsiy tenglik, “oliy” va ommaviy madaniyat, (“neo-” ko‘rinishdagi) obyektiv va subyektiv madaniyat, xotira, o‘tmish va tarix, postmodernizm va realizm o‘rtasidagi tafovutni o‘zida aks ettiruvchi xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu davrdagi keskin ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar sababli metaadabiy feminist romanlar turi rivojlanib mazkur oqimning mavqeini yana ham oshirdi. Britaniya postmodernizm adabiyotining badiiy estetikasi realizmdan o‘zining *kinoyali so‘z o‘yinlari, hayotiy reallikdan matnning ustuvorligi, intertekstuallik va ommaviy axborot vositalari ta’sirida shakllangan madaniyatlarning turli ko‘rinishlari, “muallif niqobi” fenomeni, o‘yin va karnavallik, ommaviy va elitar adabiyotda adabiy janr kodlaridan keng foydalanilganligi, oliy madaniyatlar tili va uslublaridagi plyuralizm va ulardagi barqaror muvozanat* kabi xususiyatlari bilan ajralib turishi tahlil qilindi.

Bobning uchinchi faslida **“Julian Barns ijodi postmodernizm estetikasi silsilasida”** tahlil qilinib uning postmodernizm adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi o‘rganildi va uning ijodi postmodernizmning yuksalish hamda susayish davrilarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. G‘arb adabiyotshunoslari V.Guvineri, P.Chayldz va M.Mozeli Barnsning postmodernizmga qo‘shgan adabiy hissasini o‘zlarining keng qamrovli tadqiqotlarida chuqur tahlil qiladilar. M.Mozeli “Barnsning har bir asari original tarzda yozilgan bo‘lib, ularni umumlashtirish va tasniflashning imkoni yo‘q”ligini³³ ta’kidlaydi. N.B.Mankovskaya “an’anaviy syujet qurilishiga xizmat qiladigan badiiy to‘qima elementlarga dekonstruktiv yondashuv va intertekstuallik tendensiyalari Julian Barns singari bir qancha romannavislarga ham xos”³⁴ ekanligini e’tirof etadi. V.Guvineri Julian Barnsning “Adabiy shakllar innovatori”³⁵ sifatidagi rolini yuqori baholaydi. Tori E.Barnsning “Dunyo tarixi 10 ½ bobda” asarini an’anaviy roman janri xususiyatlari doirasida tahlil qiladi va Barns hikoya janrini ongli

³² Benteley N. Contemporary British Fiction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2008. – P. 128.

³³ Moseley M. Understanding Julian Barnes. – US: University of South Carolina, 1997. – P. 11.

³⁴ Маньковская Н. Б. Эстетика постмодернизма. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2000. – С. 317.

³⁵ Guignery V. The Fiction of Julian Barnes. – England: Palgrave Macmillan Ltd., 2006. – P. 1.

ravishda kengaytirish orqali “an’anaviy roman chegaralarining keskin buzilishiga sabab bo‘ladi”³⁶ deya e’tiroz bildiradi. Chayldz “Garchi Barns adabiyot sahnasiga postmodernist yozuvchi sifatida kirib kelgan bo‘lmasada, 1980-yillarda Britaniya postmodernizmida markaziy o‘rinni egallay oldi”³⁷ degan fikrni ilgari suradi. Julian Barns an’anaviy adabiy janr usullaridan chekinib ijodiy eksperiment sifatida noan’anaviy badiiy asarlar yaratishga intilganligini va adabiy “fabulyatsiya”³⁸ shakli orqali an’anaviy janr, shakl va usullarga eksperimental yondashuvi³⁹ orqali postmodernizm oqimining vakili sifatidagi rolini mustahkamlaganligini e’tirof etadi. Jeyms E.Martin Barnsning “Floborning to‘tiqushlari” asari turli adabiy janrlar birikkan nuqtada haqiqiy o‘tmishni topishga muvaffaq bo‘lish mumkinligini isbotlay olgan roman ekanligini ta’kidlaydi.

“Barnsshunoslar” o‘zlaring ilmiy tadqiqot ishlarida Barns romanlarining janriy va shakliy xususiyatlariga ta’rif berishganligi tahlil natijalarida ma’lum bo‘ldi. Badiiy asarlarning janriy xususiyatlarini talqin etishda ahamiyatli bo‘lgan mavzuiy aspektlar esa yetarlicha ta’riflanmagan. Nazdimizda, Julian Barns romanlarini mavzuiy va shakliy jihatdan ham tasniflash ularning janriy dinamikasini chuqur anglashga xizmat qiladi. Barns romanlaridagi *mavzuiy tasnifimiz* quyidagicha:

1. **Shaxs transformatsiyasi va takomili mavzusiga doir asarlar** – “*Metrolend*”, “*Floborning to‘tiqushi*” va “*Oxirat hissi*”.

2. **Oilaviy munosabatlar, do‘stlik, sevgi va xiyonat mavzusidagi romanlar** – “*U meni uchratmasdan oldin*”, “*Bu haqda yana va yana gaplashaveramiz*”, “*Sevgi va boshqalar*” va “*Yagona hikoya*”.

3. **Ijtimoiy-siyosiy hayot mavzusi doirasida yaratilgan asarlar** – “*Angliya, Angliya*” va “*Kirpi*”.

4. **Diniy-falsafiy mavzular ifodalangan romanlar** – “*Quyoshga tik boqib*” va “*Dunyo tarixi 10 ½ bobda*”.

An’anaviy romanlarga xos janriy unsurlar Barns ijodida transformatsiyaga uchraganligi sababli yangicha qorishma turlarini hosil qiladi. Ya’ni epik diffuziyaga uchragan romanlar yangicha shakliy xususiyatlar bilan boyitiladi. Ularning janriy tabiati esa *shakliy toifalash* imkonini beradi:

1. **“Metaadabiy romanlar”**ni ikki turga ajratish mumkin: biografik va tarixiy.

a) biografik – “*Floborning to‘tiqushi*”, “*Vaqt shovqini*”, “*Qizil paltoli erkak*” va “*Elizabet Finch*”. Barcha romanlarda o‘z kasbida yuqori mahorat

³⁶ Tory E. You can’t get by without the dream: belief in Julian Barnes’s *A History of the World in 10 ½ Chapters*. – *Romanian Journal of English Studies*, 2014. Vol. 11. Issue 1. – P. 2 (DOI: 10.2478/rjes-2014-0017).

³⁷ Childs P. *Julian Barnes. Contemporary British novelists*. – UK: Manchester University Press, 2011. – P. 2.

³⁸ Fabulyatsiya – Robert Skols tomonidan uning “Fabulyatsiya” nazariy asarida ilk marataba ta’riflangan zamonaviy adabiy shakl. U yozuvchining yuksak badiiy mahorati natijasida yuzaga kelgan bo‘lib badiiy to‘qima va chin voqelikni nutqda va xotirada qorishtirib yuboradi hamda aldashni maqsad qilmagan holda yolg‘on hikoyalar to‘qib chiqarish strategiyasi hisoblanadi.

³⁹ Childs P., Julian Barnes. *Contemporary British novelists*. – UK: Manchester University Press, 2011. – P. 7.

egalari bo'lgan real shaxslarning hayot yo'llari tasvirlanadi va ularning hayoti bilan bog'liq uydirmalar fosh etiladi.

b) tarixiy – “*Dunyo tarixi 10 ½ bobda*” va “*Angliya, Angliya*”. “Dunyo tarixi 10 ½ bobda” asarida dunyo tarixini tashkil etuvchi asosiy manbalar taftish qilinsa, “Angliya, Angliya” asarida esa Angliyaning shu davrgacha bo'lgan ma'lum tarixi hamda kelajakdagi tasavvuriy manzaralari va undagi haqiqatlar aks ettiriladi.

2. Retrospektiv romanlar turiga “*Metrolend*” va “*Oxirat hissi*” asarlarini e'tirof etish mumkin. Guvineri o'zining “Julian Barns ijodi” asarida Julian Barnsning ilk ijodiy merosi “Metrolend” asarini bildungsroman – tarbiya romani sifatida tasvirlaydi. “Oxirat hissi” asari esa iqornoma memuar janr xususiyatlariga ega. Ikkala asar qahramonlari ham o'zlarining yashab o'tgan umrlarini retrospektiv o'tmishdagi xotiralari asosida hikoya qiladilar.

3. Postmodernistik detektiv romanlar ham mavjud – “*Freeland*” (“*Ozod yurt*”), “*Artur va Jorj*” va “*Kirpi*”. Ikki yirik romanlar “Kirpi” va “Artur va Jorj” asarlarining asosiy voqealari jinoyatlarni fosh etish yoki nohaqlik “qurboni” bo'lgan qahramonning o'z nomini oqlashi hamda sud jarayonlari bilan bog'liqligi ularning detektiv romanlar sifatida tasniflanishini taqazo etadi.

Xulosa qilib aytganda, Julian Barns ijodini postmodernizm estetikasi silsilasida chuqur tahlil va tasnif qilinishi adibning eksperimental uslubini, ijodiy erkinligini, asarlarida ko'tarilgan mavzular va ularni ifodalashda foydalanilgan ramzlarning mohiyatini, badiiy nutq tilini, romanlarining janriy tuzilishini, an'anaviy syujet qurilishiga xizmat qiladigan badiiy to'qima elementlarga dekonstruktiv yondashuvini, adabiy uslublar va rivoya usullarining xilma-xilligini, intertekstuallik tendensiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Adib turli an'anaviy roman janrlarining shakliy xususiyatlarini o'zgartirib, yangicha postmodernistik biografik roman, postmodernistik tarbiya romani, postmodernistik tarixiy roman, postmodernistik satirik roman va postmodernistik iqornoma roman turlarini yarata olgan mahoratli romannavidir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Julian Barnsning tarixiy metaromanlarida haqiqat va uydirmaning janriy ifodasi**” deb nomlangan bo'lib uning birinchi faslida Barnsning “Floberning to'tiqushlari” romani postmodernistik adabiy biografiya sifatida tahlil qilinadi va undagi obyektiv haqiqat subyektiv talqinda namoyon bo'ladi. “Floberning to'tiqushlari” – postmodernizmning tarixiy metaadabiyot namunasidir ammo ayni shu yo'nalishda yozilgan asarlardan farqli ravishda tarixiy biografik metaadabiy roman bo'lib, biografiya janriga dekonstruktiv yondashuv asosida yozilgan⁴⁰. Tarixiy metaadabiyot intertekstuallik, o'z-o'zini reflektiv ifoda etish, parodiya, pastish, o'z-o'ziga iqror bo'lish, kinoya, fragmentatsiya, janrlar qorishmasi va yana bir necha badiiy uslublar bilan xarakterlanadi, albatta, bu kabi postmodernizm adabiyotiga xos xususiyatlarni ushbu romanda ham ko'plab uchratish mumkin. Barns Floberning tom ma'nodagi haqiqiy biografiyasini yaratishda birinchi navbatda an'anaviy va o'z davrigacha

⁴⁰ Nicole B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 117.

bo'lgan barcha biografik uslublardan chekinadi hamda eksperimental tasvir usullari orqali yondashib juda ko'plab janrlarni qorishtirib yuboradi. Bunday janrlar qatorida *xronologiya, bestiariy, poyezd haydovchilari uchun qo'llanma* kabi hujjatli yozishmalar, *apokrif, manifest, lug'at, sof hikoya, imtihon varaqasi biografiya, avtobiografiya, falsafiy dialoglar, tanqidiy insho, va ilovalar* singari bir necha janrlar qorishmasini kuzatsakda ular birgalashib faqat bir janrning haqiqatni yuzaga chiqarishiga xizmat qiladi. Barns Floberning hayoti va ijodini ikki xil adabiy janrdan (asarning to'rtinchi va to'qqizinchi boblari) foydalangan holda betakror poetik tarzda tasvirlaydi. To'rtinchi bob "Flober Bestiariysi" ("The Flaubert Bestiary") deb nomlanib, Floberning shaxsiyati va tabiatini bestiariy janri orqali o'rganishga bag'ishlangan. Barns an'anaviy bestiariy janrini muammoli vaziyatlarga moslashtirib, zamonaviy kontekstda qo'llaydi va jonzot hamda inson hayoti o'rtasida ramziy bog'liqlik yaratishga muvaffaq bo'ladi. Barns Floberni bir necha hayvonlarga masalan arslonga, hind yo'lbarsiga, bo'g'ma iloniga, ho'kizga, filga, kitga qiyoslaydi. Floberning o'z yozishmalaridan olib qaralganda esa "*He is an oyster in its shell (1845); a snail in its shell (1851); a hedgehog rolling up to protect itself (1853, 1857). He is a literary lizard basking in the sun of Beauty (1846), and a warbler with a shrill cry which hides in the depths of the woods and is heard only by itself (also 1846) va "He becomes as soft and nervous as a cow (1867);* (U chig'anoqdagi ustritsa, qobiqdagi shilliqurt, o'zini himoya qilishga kirishgan tipratikan, go'zallik oftobida toblanib yotgan kaltakesak, o'rmonda yashirinib olgan va ovozi o'zidan boshqa hech kim eshitmaydigan moyqut qushi. Sigirday yuvosh va asabiy).

Mazkur romanida Barns o'zining betakror adabiy yondashuvi bo'lgan janrlar qorishmasidan foydalanib, postmodernistik biografiya janrining nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'ladi. Bir necha asrlar davomida har xil yondashuvlar sabab haqiqatdan ancha yiroqlashib ketgan biografiya janrining adabiyotdagi haqiqiy o'rnini tiklaydi. Postmodernizmning obyektiv rivoya mezonlariga amal qilgan holda asar hikoyachisining asardagi vazifalarini muayyan mezonlar doirasida belgilab beradi.

Bobning ikkinchi fasli "**Dunyo tarixi 10 ½ bobda**" **metaromanida diniy-falsafiy va tarixiy voqelik in'ikosi**" deb nomlangan bo'lib Julian Barnsning postmodernizmning o'ziga xos adabiy shakli sifatida e'tirof etilgan metaadabiyot yo'nalishida ko'rsatgan badiiy mahorati uning "Dunyo tarixi 10 ½ bobda" (1989) asari tahlilida ko'rish mumkin. Adibning ushbu asari postmodernizmning metaadabiyotga xos parodiyalashtirish, kinoyaviylik, pastish, intertekstuallik, noan'anaviy rivoya uslubi va o'z-o'zini reflektiv badiiy ifoda etish kabi ustuvor badiiy unsurlar orqali yoritilgan. "Dunyo tarixi 10 ½ bobda" romani tarixiy metaroman bo'lib, garchi o'n yarim bob deb nomlangan bo'lsada, asar umumiy holatda o'n bir bobdan iborat. Undagi tarixiy voqealar shaxsiy xotira va taassurotlar asnosida har xil roviylar tomonidan hikoya qilinadi. Asarda keltirilgan hikoyalar yer yuzida sodir bo'lgan va o'ta halokatli deb topilgan tarixiy jarayonlar tasvirlangan voqealar asnosida tanlangan. Postmodernist adiblar haqiqat yo'lida kurashib o'zlarining parodiyalashtirmoqchi bo'lgan manbalarini aynan

kitobxonning fundamental e'tirofida shubha qoldirgan o'rinlardan izlaydilar. Insoniyatning ilk tarixi haqida hikoya qiluvchi Ibtido ("Qadimiy Ahd")da Nuh kemasi hikoyasi Barns murojaat qilgan va qilishi kerak ham bo'lgan manbadir. Muallif manbadagi bir necha o'ta munozarali voqealar tasviridan kelib chiqib badiiy syujet elementlaridagi estetik mazmuni izdan chiqargan holda ularni parodiylashtiradi. Shu yo'l bilan manbadagi voqealarning asliy holatlarini va personajlarning chin qiyofasini gavdalanatirishga harakat qiladi. Buyuk toshqin asarning markaziy hikoyasi bo'lib asarda keltirilgan to'qqiz tarixiy hodisa toshqin voqeasi keltirilgan hikoyaga mantiqiy jihatdan uzviy bog'langan. Ilk hikoyadagi halokatli yomg'ir, "qutqaruv" kemasi, hayvonlarning "pok va harom" tamg'asi ostida kemaga qabul qilinishi, tirik qolish uchun kurash va yog'och qurtlari asardagi barcha boblarda turli o'rinlarda kinoyaviy tarzda qo'llaniladi. Har qanday personajni, uning asl psixologik holatini obyektiv yoritish, avvalambor, subyektini, ya'ni Nuhni, garchi u asosiy qahramon bo'lsa ham, roviylik maqomidan mahrum qiladi. Barns "Dunyo tarixi 10 ½ bobda" asarining ilk fragmentida parodiyalashtirilgan qahramonni boshqa tur – Yog'och Qurtining xolis nazari orqali yoritadi. Muallif bunday turdagi roviydan o'zining o'zgacha rakursdagi diniy-falsafiy va tarixiy fikr-mulohazalarini ifodalash uchun foydalangan. Axir Nuh emasmidi "*sage, righteous and God-fearing*" (o'ta ulug'vor, mo'min va xudojo'y) qilib tasvirlangan?! So'zlar bilan tasvirlagandagina shunday edi, aslida esa u bilgan yagona narsa "*blindly obey*" (ko'r-ko'rona bo'ysunish) edi: "*He was a monster, a puffed-up patriarch who spent half his day grovelling to his God and the other half taking it out on us. He had a gopherwood stave with which ... well, some of the animals carry the stripes to this day. He was a large man, Noah – about the size of a gorilla, although there the resemblance ends ...*" (U xuddi vahshiy hayvondek bo'kirgan, badxulq, doimo o'zidan g'alati hid chiqarib turadigan, o'ta ishonchsiz, hasadgo'y, qo'rqqoq va gorilladek keladigan bir "patriarx" edi. Garchi unga berilishi mumkin bo'gan ta'riflar shu o'rinda yakuniga yetishi kerak bo'lsada ... Yuqoridagi kabi parodik xarakter postmodernistik metaadabiyot yo'nalishining parodiyadan ko'zlangan aniq maqsadlarini ochib bera oladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Julian Barns ijodida an'anaviy janrlarning shakli transformatsiyasi va mazmuniy yangilanishi**" deb nomlangan bo'lib uning birinchi faslida adibning "Metrolend" postmodernistik tarbiya romanida badiiy sukunatning shakli va vazifasi tahlil qilingan. Julian Barns postmodernistik asarlarining shakllanish mexanizmi, ularning o'ziga xos janr dinamikasi, badiiyatidagi rivoya startegiyalarining noan'anaviy belgilarini tadqiq va tahlil qilish asosida yana bir klassik janr turi – tarbiya romani ham postmodernizmga xos tarzda transformatsiyaga uchragani tadqiqot jarayonida aniqlandi. Julian Barns o'zining ilk postmodernistik asari "Metrolend"da ikki o'smir qahramon Kristofer Lloyd va Toni Barbarovskilarning jismoniy hamda ruhiy yetuklik sari bosib o'tgan yo'llarini "*postmodernizm davrining talabi doirasida dekonstraktiv uslub*"⁴¹ da

⁴¹Ekanem F. Derrida's Ideas on Postmodernism and Its Implications for Postmodern Philosophy of Education. Pinisi Journal of Art, Humanity and Scoial Studies. ISSN 2747-2671 (online), 2021. Vol. 1. No. 6. – P. 7.

tasvirlaydi. Roman “Bildungsromane”, ya’ni tarbiya romani sifatida bir necha tanqidchilarning ishlarida bir necha bosqichlarda tahlil qilingan. Shu bilan birga, aynan ingliz klassik tarbiya roman turiga xos bo’lgan «*avtobiografik rivoyat (muallif o’zining bolaligidagi voqealarni o’z asarida yoritishi), shajara (qahramonning kelib chiqish tarixi), shogirdlik, o’zlikni anglash (qahramonning o’zi tug’ilgan makonni tark etishi orqali), xronologiya tartibidagi syujet, kuchli ichki va tashqi konflikt, hayotiy qiyinchiliklar, bosh qahramonning doimiy ta’sir ostida bo’lishi, axloqiy sog’lom oila tushunchasi va o’z muhabbatini topishga bo’lgan harakatlar*»⁴² kabi jihatlar bilan xarakterlanishini ta’kidlaydi. Postmodernistlar esa shaxs tarbiyasi kabi adabiy mavzuda realistik unsurlardan chekingan holda tasvirlashni afzal ko’radilar. Realistik tarbiya romaniga xos bo’lgan shakliy unsurlar postmodernistik jamiyatning ruhiy va psixologik holatini tasvirlay olmasligini o’z asarlaridagi noan’anaviy yo’llar bilan ifodalaydilar. “Metrolend” romanini telba-teskari postmodernistik tarbiya romani⁴³ yoxud “antitarbiya” romani sifatida baholashimiz mumkin. Ya’ni klassik tarbiya romanlarda qahramonlar hayot qiyinchiliklarini o’zligini yo’qotmagan holda va sabr-matonat bilan yengib o’tgan bo’lsalar, postmodernistik tarbiya roman qahramonlari hayotni tushunishda undagi tabiiy mavjudliklarni sinab ko’rish va “ko’cha” tarbiyasidan o’tish orqali shaxsiy yetuklikka erishadilar. “Metrolend” asarining klassik tarbiya romanlaridan yana bir farqli tomoni shundaki, unda sukunat qahramonlarning hayotni va insonning o’zligini anglab yashashida muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asrda sukunat shu davr madaniyatining va ustuvor realistik qarashlarining bir qismi bo’lib xizmat qilgan bo’lsa XX asrga kelib san’atda tasvirning asosiy elementiga aylandi. Bu esa, o’z navbatida, postmodernistik insonlar ruhiyatidagi keskinlikni o’zida ifoda etuvchi metaforaga ko’chdi. Badiiy sukunat tushunchasi ruhning intihosi yoki qalbning o’limi sifatida emas balki, akseleratsiya holatida tezlashib ketgan modern va postmodernistik jarayonda o’zini xavfsiz his qilishni ko’zlagan jamiyatlarning g’oyaviy konsepsiyasi sifatida qo’llanila boshlandi.

I.Hassan postmodernistik adabiyotda **Sukunat** quyida sanab o’tiladigan shakllari sabab ikki yaxlit holatda namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. Birinchisi, «*tilning nigilistik, destrukturaviy, iblislarga xos salbiylikni o’zida aks ettiruvchi va ikkinchisi uning ijobiy, chegara bilmas, oliymaqom, shukuhli osoyishta holati*»⁴⁴dir. Binobarin u o’zining 1967-yilda “Sukunat adabiyoti” asarida “*yangi adabiyot*”da, ya’ni “anti-adabiyot”da sukunatning bir necha shakllarini sanab o’tadi: **asl sukunat** (salbiy intiho sabab yuzaga kelgan sukunatdan boshlangan ibtido), **metaforali sukunat** (adabiy beadablik), **apokaliptik sukunat** (aks motivli sukunat, ya’ni asl ma’nosida mazmunga ega bo’lmagan sukunat bo’lib asl sukunatning keskinlashgan holatidir), **achchiq sukunat** (istehzoli sukunat) va **osoyishta sukunat**⁴⁵. Sukunat

⁴² Maxmudova. N. Charlz Dikkens ijodida tarbiya romani janr tipologiyasi: Phd disser. – T., 2020. – B. 29.

⁴³ Maxmudova. N. Charlz Dikkens ijodida tarbiya romani janr tipologiyasi: Phd disser. – T., 2020. – B. 16.

⁴⁴ Hassan I. The Dismemberment of Orpheus Toward a Postmodern Literature. – US: University of Wisconsin Press, 1982. – P. 269.

⁴⁵ Galdos I.B. Literature Has Vanished in the Global World. Interview with Ihab Hassan. – NY: Alfred. A.Knopf, 1967. – P. 4.

Metrolend asarida qahramonlarning idrokida va xulq-atvorida turlicha namoyon bo‘ladi: gapirishni istamaslik, yomon so‘zlarni aytishdan tiyilish maqsadida yoinki odob saqlash ilinjida jim turish, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik vajidan hamda ikkilanishlar holatida sukut saqlash, takrorlamaslik va so‘zlar ishtirokisiz ko‘proq ma’no kasb etish. “Metrolend” asari qahramonlari Kris va Toni o‘zlari yashayotgan zamon hamda makonni idrok etish uchun sukunatni o‘zlariga asosiy vosita qilib olganlar. «*Men sukunatimda o‘rganaman. Sen esa kuzatishlarsiz aniq ko‘rsatmalarga amal qilib melodrama usulida o‘rganasan*»⁴⁶ deya tanbeh berilgan qahramonimiz Kris o‘zining keyingi harakatlarini ongli ravishda sokinlik bilan ijro etadi. Chunki «*postmodernistik epistemada ya’ni ilmiy xulosalarida so‘zlar haqiqatni ifoda etishga qodir emas, ularga ishonib bo‘lmaydi*»⁴⁷. Haqiqatni endi asar xarakterining sukutlaridan, sukunati sabab yuzaga kelgan ma’noli kuzatishlaridan qidirishga mahkummiz. «*Arnolfini to‘yi” oldida avval chuqur hislarga cho‘mib so‘ngra mayin tabassum qilib, keyin esa to‘sattan bir lahzada, qovog‘ini uyib, norozilik kayfiyati uyg‘ongan erkaklar ko‘zoynagini taqib olgan yosh rohibaning*»⁴⁸ yashirin kechinmalarida asar yaratilgandan beri ayon bo‘lmagan siri – haqiqati oshkor bo‘lar balki?! Portretida tasvirlangan inson so‘z bilan yetib borishi mumkin bo‘lmagan haqiqatning ildizi butun umrini diniga, poklik va itoatkorlikka bag‘ishlagan yoki bag‘ishlashi kutilgan, ammo erkaklar ko‘zoynagini taqib olgan rohiba ayolning ko‘z o‘ngiga “allaqachon” homilador ayolga uylanayotgan Arnolfinining to‘yi marosimi tasvirini olib kelib undagi yuz ifodalarini jimgina kuzatayotgan o‘smirning sukutida yaralgan o‘ylari **beadablik**dek tuyulsa ham, bu o‘rinda faqat shu usulgina postmodernist yozuvchilar da’vo qilgan o‘ta samarali tugal ma’no – haqiqat sari yetaklashi mumkin. Asarning bosh qahramoni Kris bir necha o‘rinlarda uning uchun kutilmagan, ammo “tabiiy” holatga aylanib qolgan noqulay va uyatsiz vaziyatlarda sukut saqlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi va unga «*erkak bo‘lib ulg‘ayayotgani*»⁴⁹ni shu yo‘l bilan anglatmoqchi bo‘lgan jamiyatni **istehzoli sukunatida** tark etadi. Aslida esa «*erkaklar sukutlarida qudratli*»⁵⁰ ekanliklarini u his qilgan bo‘lsa ajabmas. Qolaversa, u o‘zlarini erkak deb atayotgan kattalar yaratgan jamiyatda hech bir ezgulikka guvoh bo‘lmayotgan edi. Shu tariqa postmodernizm adabiyotida sukunat – postmodernizm qahramonining o‘ta og‘riqli mavzulardan o‘zini olib qochishga qaratilgan oldindan iroda qilingan strategiyasi sifatida rivojlandi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “**Angliya, Angliya” romanida postmodernistik jamiyatning satirik tasviri**” deb nomlangan bo‘lib, Barnesning “Angliya, Angliya” romanini postmodern jamiyatlarning holatini o‘rganishga bag‘ishlangan satirik roman sifatida tasniflash mumkin. Asarning satirik roman sifatida tasnif qilinishiga sabab uning zamonaviy ingliz postmodernistik

⁴⁶ Galdos I.B. Literature Has Vanished in the Global World. Interview with Ihab Hassan. – NY: Alfred. A.Knopf, 1967. – P. 11.

⁴⁷ Guignery V. Voices and Silence in the Contemporary Novel in English. – UK: Cambridge Scholars Publishing, 2009. – P. 7.

⁴⁸ Barnes J. Metroland. – UK: International, 1980. – P. 11.

⁴⁹ Barnes J. Metroland. – UK: International, 1980. – P. 20.

⁵⁰ Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism. – USA: Routledge, 1988. – P. 70.

jamiyatining turli salbiy jihatlarini, ya'ni milliy o'ziga xoslik, madaniy meros va madaniyatning tijoratlashtirilishi kabi g'oyalarining muallif tomonidan istehzoli tarzda tanqid qilinishida namoyon bo'ladi. Asar voqealari asar sarlavhasidagi kabi "Angliya, Angliya" deb nomlangan "Mavzu xiyoboni" ("Theme Park")ning yaratilishi zamirida rivojlanib boradi va butun mamlakatning turistik maqsadlarda kommersionlashtirilishi natijasidagi ayanchli holatini qisqa, ammo teran tasvirleydi. Buyuk Britaniyada ikkinchi jahon urushidan keyingi davr – 1950-1960-yillar satirik portlash davri⁵¹ deya baholanadi. Satira ilk bosqichda Buyuk Britaniyada Avgustin davrida nashriyot uylarining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi sabab ingliz madaniyatining markaziy tuzilmalari hisoblangan qahvaxonalar, teatr va barlarda rivojlangan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin Sovuq Urushi davrining ilk yillarida yangi texnologiyalar va ijtimoiy o'rinlar ko'magida yangicha ijodiy yozishmalar, ijro va grafik uslublarda ommaviy madaniyatga kirib keldi. Satira ayni davr avlodlarining hayotiy ko'ngilochar xizmatlarga nisbatan ommaviy yondashuvlarga qarshi isyon sifatida namoyon bo'lib, asosan, jinsiy erkinlik g'oyalarining keng yoyilishida va tilning bevosita ochiq oydinlashishida namoyon bo'ldi. Qisqa vaqt ichida satira ommaviy axborot vositalari – jurnallar, teleshoular va filmlarni butunlay qamrab oldi. Bundan tashqari, keskin siyosiy holat sanalgan Sovuq Urushi davriga bo'lgan umummunosabatlarni ham o'zida aks ettirdi. Bunda, asosan, texnologik innovatsiyalar insoniyatni o'z-o'zini yo'q qilib yuborishiga sabab bo'lishi mumkinligiga keng e'tibor qaratildi. Angliya adabiyotida 1960-yillar postmodernizmning aniq bir boshlanish nuqtasi sifatida qaralsa, postmodernistik holat satiraning janr sifatida kirib kelishiga nafaqat izn berdi, balki uning taraqqiyotini har tomonlama ta'minlashga kerakli sharoit ham yaratdi⁵². Satira yangicha – postmodernistik ko'rinishda namoyon bo'la boshladi. Yangicha satiraga, komik dramaturg Alan Bennet tomonidan "shaxsiy yumorning ommaga oshkor qilinishi"⁵³ deya ta'rif berildi. Julian Barnesning "Angliya, Angliya" romani bir qator ingliz adabiyotshunoslar tomonidan postmodernistik satirik roman⁵⁴ deb ta'riflangan. Ushbu asar Angliya postmodernistik jamiyatining o'ziga xos bir necha tomonlarini satiralashtiradi. Jumladan, ingliz jamiyatining o'ziga xos ramziga aylangan xotiralar asnosiga qurilgan shaxsiy o'ziga xoslik g'oyalarining ma'nosizligini; yagona va betakror ingliz millati deya madh etilgan qarashlarning asossizligini; ma'lum bir ijtimoiy toifalar tomonidan butun mamlakatning "istirohat bog'iga" aylantirilgani holda ularning asllikka da'vo qilishlarining o'ransizligini; tarixiy haqiqat tushunchasining nisbiyligini hajviy bo'yoqlarda ifodalaydi. Roman uch qism va ikkinchi qismda uch bo'limdan iborat bo'lib asar

⁵¹ Greenberg J. The Cambridge Introduction to Satire. – UK: Cambridge University Press, 2019. – P. 253.

⁵² Caron J.E. Satire as the comic public sphere. Postmodern "Truthiness" and civic engagement. – Pennsylvania. The Pennsylvania State University Press, 2021. – P. 43.

⁵³ Bennett A. A Great Silly Grin: The British Satire Boom of the 1960s. – NY: Public Affairs, 2002. – P. 97.

⁵⁴ Arargüç M.F. Idle Simulacra in Julian Barnes' England, England // Journal of British Literature and Culture, 2005. – No. 12. – P. 3-20.; Ekberg J. More Real than Real: Simulacra and Satire in Julian Barnes's England, England. – China: College of Liberal Arts, 2014. – P. 1.; Ahmed S. Satires in Julian Barnes's England, England // Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies, Vol. 3. Issue 9. – Bangladesh, 2023. – P. 165-173.

voqealari uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Asar ramziy ravishda uch qismga bo'lingan bo'lib Marta Kokreynning hayotini uch – bolalik, o'spirinlik va keksalik bosqichlarida ifodalaydi. Birinchi qism “Angliya” deb nomlanib asar ekspozitsiyasida Martaning Angliyaning rasm-boshqotirmali xaritasini yig'ishi bilan boshlanadi, ammo u xaritani to'lig'icha hech qachon yig'a olmaydi. Ikkinchi bo'limdagi Angliya, Angliya – postmodernistik jamiyatlar orzu qilgan haqiqiy tijorat maskani. U haqiqiy Angliya va'da ham qila olmaydigan darajadagi oliymaqom qulayliklardan bahramand bo'lish imkonini bera olgan betakror simulakra mahsuli. Haqiqiy reallikni qadrlay olmaydigan o'zini asllikdan mahrum qilganlar uchun o'zini o'zi aldab yashashi uchun yaxshi vosita. Uchinchi bo'limdagi Anglia – dekonstruktiv yondashuv asosida o'zining asl holatiga qaytarilgan ko'hna Angliya. Garchi xavotirli tuyulsada Angliada uzoq yillar davomida amalda qo'llab kelingan iqtisodiy o'sish, siyosiy ta'sirni kuchaytirish, harbiy salohiyat va ma'naviy ustunlik g'oyalaridan butunlay voz kechildi. Uchinchi ming yillikdan boshlab uning nomi Angliaga o'zgartirildi. Anglia vatanparvarlarining nazdida bu kabi choralardan maqsad “o'z tarixidan charchagan davlat”ni qayta tiklash edi. Asar an'anaviy satiradan farqli ravishda o'zi satiralashtirgan muammolarga yechimni shu tariqa taklif qiladi. Nihoyat, Marta uchun keksalik davriga kelib o'zi orzu qilganidek haqiqiy xavotirsiz, yolg'onlarsiz hayot boshlash imkoni beriladi.

Demakki, fragment holatidagi xotiralarning ijobiy bo'yoqdor qilib tasvirlanishi insonlarni baxtli qila olmaydi. Balki haqiqiy qadriyatlar ustiga bino qilingan oilaviy an'analargina yorqin xotira sifatida xizmat qilishi mumkin. Haqiqatlari oshkor qilinmagan tarix juda ko'plab illatlarning yana ham chuqurroq ildiz otib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Tarix haqiqat va reallikning asl mexanizmi sifatida ishlashi kerak, aks holda undan voz kechish eng to'g'ri chora bo'ladi. Faqat insonlarning ma'lum manfaatlarigagina xizmat qiladigan jamiyatda millatning haqiqatga va asllikka da'vo qilishi uning faqat tanazzulini tezlashtirishi mumkin

Ushbu bobning uchinchi fasli **“Oxirat hissi” asarida iqroornoma roman unsurlari tasviri**” deb nomlangan. “Oxirat hissi” romani – bosh qahramon, nafaqadagi Toni Vebsterning maktab davri voqealari bilan boshlanib uning hayoti davomida iqror bo'lishi kerak bo'lgan hayotiy kechinmalarini xotiralari asosida hikoya qiladi. Asarga murakkab usullar bilan bilvosita yondashish uni iqroornoma asar sifatida talqin etilishi mumkinligini ko'rsatadi. Garchi asar voqealari an'anaviy iqroornoma roman uslubida hikoya qilinmasada, asar qahramoni Toni Vebster o'zining o'tmishidagi harakatlariga aynan haqiqat uchun kurashgan posbon sifatida nazar soladi. O'z-o'zini har tomonlama chetdan kuzatib, o'zligini, “ichki menini” chuqur tahlil qiladi. Xotiralari qaytib yoshligidagi voqealarni bir joyga jamlashga harakat qiladi va atrofida bilgan munosabatlariga baho berishga urinadi. O'tmishiga yana ham chuqurroq nazar tashlar ekan, voqealar jarayonida shakllangan xulosalari xolis bo'lmaganligini va to'laligicha asoslanmaganligini tushunib yetadi.

Bizningcha, Toni Vebsterning o‘z hayotini aynan xotiralari asnosida tasvirlashi uni “ishonchli” roviy⁵⁵ (“reliable narrator”) rovidan mahrum qiladi. “Beqaror roviylar”⁵⁶ esa postmodernizmning o‘ziga xos unsuri bo‘lib haqiqat, tarix va katta hikoyalarga bo‘lgan ishonchsizlik kayfiyati sabab yuzaga kelgan. Roviylar “rivoya subyekti, voqealarni hikoya qilayotgan, ular kechayotgan makon va zamon, ular ishtirok etayotgan personajlarga oid tafsilotlarni yetkazib tasvir predmetiga u yoki bu tarzda munosabat bildirayotgan shaxs” lardir⁵⁷. Iqornoma romanlarda, odatda, biror bir shaxsning boshqa bir shaxs huzurida potensial uyatli va xijolatli haqiqatni oshkor qilishi hamda shu yo‘l orqali gunohlardan forig‘ bo‘lishi, kechirilishi yoki butunlay transformatsiyaga uchrashi nazarda tutiladi. Iqornoma ikkinchi jahon urishidan keyin Amerika yozuvchilari orasida ommalashgan bo‘lib, odatda, o‘z-o‘zini badiiy ifoda etish, o‘z-o‘zini ijodiy ish jarayonida tanqidiy o‘rganish, tabu mavzularga va tarixiy psixologik “jarohatlar” hamda shaxsiy nizolarning badiiy ta’siriga chuqurroq to‘xtaligani bois postmodernizm bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Postmodernistlarning har qanday matnga bo‘lgan skeptik munosabatlari iqornoma uslubida ham o‘z aksini topganligi uchun iqornoma postmodernizmning bir shakli sifatida e’tirof etiladi. “Buqalamun romannavis”⁵⁸ deya baholangan Julian Barns o‘zining “Oxirat hissi” romanini shu qadar mahorat bilan yozadiki, kitobxonda asarning oxirigacha qahramonning aybsizligiga va samimiyligiga hech bir shubha paydo bo‘lmaydi. Birinchi shaxs tomonidan hikoya qilingan memuar roman voqealari shu obrazning xotiralari asnosida o‘z-o‘zini reflektiv-badiiy ifoda etish orqali ochib beriladi. Beqaror roviy – Toni, xotira, tarix, falsafiy qarashlar va oliy darajadagi o‘z joniga qasd qilish mahorati (“*First-class degree, first-class suicide*”)⁵⁹ haqidagi uydurmalar bilan kitobxonni asar oxirigacha “aldaydi”. “*Hammasi maktabda boshlangan edi*” deydi u, lekin “*hammasi*” deganda nimani nazarda tutganligini asarning oxirigacha oshkor qilmaydi. Toni Vebster, avvalo, o‘z xotiralariga qayta-qayta va chuqurroq nazar solib, garchi bunga unchalik oshiqmayotgan bo‘lsada, o‘tmishida sodir bo‘lgan voqealarning xotiralariga mixlanib qolganligining asl sababini tushunishga va tushuntirishga harakat qiladi. Shubhasiz asardagi “intim munosabatlarga tashna” (sex-hungry) obrazlar 1960-yillarda Angliyada yillarda boshlangan jinsiy erkinlik inqilobining ayni o‘sha damdagi va yillar o‘tib uning ta’siri ostidagi qurboni bo‘lishdi. Asar yozilgan vaqtdan qirq yil oldingi voqealarni xotiralar asnosida hikoya qiladi. Asardagi obrazlar – bir guruh o‘smirlar aynan 1960-yillarda voyaga yetayotgan avlod bo‘lib shu davrda sodir bo‘layotgan keskin ijtimoiy va estetik qarashlar ta’siri ostida ulg‘ayishgan edi. Roviyning “hammasi” aynan maktabda boshlangan edi deya hikoyasini boshlashi uning aynan 60-yillarga ishora qilayotganini ko‘rsatadi (“... *these words had a local, textual meaning, specific to forty years ago*”)⁶⁰ va uni “ulkan tartibsizlik” (“*unrest*”) davri deya baholaydi.

⁵⁵ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 256.

⁵⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Roviy>

⁵⁷ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 256.

⁵⁸ archive.nytimes.com/www.nytimes.com/books/01/02/25/specials/barnes-chameleon.html

⁵⁹ Barnes J. *The Sense of an Ending*. – NY: Vintage Ebooks, 1984. – P. 64.

⁶⁰ Barnes J. *The Sense of an Ending*. – NY: Vintage Ebooks, 1984. – P. 45.

XULOSA

1. XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan postmodernizm oqimi bir necha tarixiy va nazariy omillar ta'sirida taraqqiy etib bordi, uning ushbu jihati to'rt muhim bosqichga bo'lib tadqiq qilindi. Tadqiqotga ko'ra, postmodernizmni fundamental shakllanish, ommalashish, yuksalish va susayish bosqichlari bilan tasniflash uning oqim sifatidagi ko'lami, ahamiyati, maqsadi, badiiy-estetik tamoyillari, turli adabiy yo'nalishlari, ko'rinishlari, shakllari va an'anaviy janrlarga munosabatini belgilashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

2. Zamonaviy ingliz adabiyotining asosini tashkil etuvchi postmodernistik romanlardagi badiiy-estetik va janriy tamoyillar quyidagilardan, ya'ni postkolonializm va multikulturalizm, feminizm, maskulin ustuvorlik, gender va jinsiy tenglik, xotira, o'tmish va tarix, "oliy" va ommaviy madaniyat, ("neo-" ko'rinishdagi) obyektiv va subyektiv madaniyat hamda postmodernizm hamda realizm o'rtasidagi tafovutdan iborat ekanligi aniqlandi. Ingliz adiblarning xotira, o'tmish va tarix konsepsiyalariga skeptik yondashuvlari sabab ingliz postmodernistik roman janrida postmodernizmga xos tarixiy metaadabiy unsurlar ustunlik qiladi.

3. Julian Barnsning postmodernizm adabiy oqimi silsilasidagi asosiy hissasi uning adabiy shakllarni eksperimental ravishda dekonstruksiyalashi ekanligini inobatga olgan holda, uning ijodiy merosi uch tadrijiy davrga ajratildi. Barnsning romanlari mavzuiy jihatdan shaxs transformatsiyasi va takomili, oilaviy munosabatlar, do'stlik, sevgi va xiyonat, ijtimoiy-siyosiy hamda diniy-falsafiy mavzular ifodalangan asarlarga hamda shakliy jihatdan biografik metadabiy, tarixiy metaadabiy, retrospektiv va detektiv romanlar tarzida tasniflandi. Uning romanlarida badiiy sukunat, tarixni qayta yozishga bo'lgan urinishlar, tarixiy metaadabiyotning o'z-o'zini reflektiv badiiy ifoda etish va o'z-o'ziga iqror bo'lish tamoyillari, parodiyalashtirish, kinoyali so'z o'yinlari, kuchli satirik kayfiyat, janrlar qorishmasi, intertekstuallik, haqiqatni yuzaga chiqarish kabi postmodernizm oqimining badiiy-estetik tamoyillari o'z aksini topgan.

4. Barnsning postmodernistik romanlari an'anaviy janrlar transformatsiyasi va qorishmasining mahsulidir. Barns o'zining xuddi shunday badiiy tamoyillari orqali yangicha postmodernistik biografik roman, postmodernistik tarbiya romani, postmodernistik tarixiy roman, postmodernistik satirik roman va postmodernistik iqornoma roman turlarini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

5. Adibning "Floberning to'tiqushi" asari postmodernistik adabiy biografik roman namunasi bo'lib, unda muallif an'anaviy biografiya janriga dekonstruktiv yondashib, ushbu janrning nuqsonli unsurlarini kitobxonga fosh etish barobarida fransuz adibi Gustav Floberning "yangicha" shakldagi biografiyasini, ya'ni hayotiy haqiqatlarini badiiy to'qima vositasida quyidagi janrlarni qorishtirgan holda yaratadi: *xronologiya, manifest, lug'at, imtihon varaqasi, tanqidiy insho, ilovalar va poyezd haydovchilari uchun qo'llanma* kabi hujjatli yozishmalar, *bestiariy, apokrif, sof hikoya, biografiya va avtobiografiya* singari adabiy janrlar.

6. Barnsning "Dunyo tarixi 10 ½ bobda" asari tarix, taraqqiyot va vaqt konsepsiyalarini dekonstruksiyalash orqali ularning inqirozini badiiy-estetik jihatdan

asoslay olgan tarixiy metaromandir. Roman hayotiy haqiqatlarni metaadabiyotning badiiy to‘qima vositalari sanalgan asar voqealari jarayonida roviy turlarining o‘zgarib borishi, har bir voqeaning alohida boshqa bir hikoyachi tomonidan bayon qilinishi va voqealarni tizimsiz va uzindi holatida tanlab jamlash orqali tasvirlaydi. Shu yo‘l bilan tarixiy taraqqiyot tushunchasining asossizligini, asl taraqqiyot undagi qadriyatlarining qimmatini bilan o‘lchanishini, aksi bo‘lganda, faqat inqirozga yuz tutishini ifodalaydi.

7. Postmodernist yozuvchi badiiy asardan kutilgan ijodiy niyatini yetkazib berish uchun an’anaviy janrlarga eksperimental yondashadi, ularni dekonstruksiyalaydi va ularning tabiatini hamda badiiyatini o‘zgartiradi, natijada ular transformatsiyaga uchraydi. Buning uchun Barns “Metrolend” asarida postmodernizmning adabiy sukunat tamoyili orqali postmodernistik tarbiya romanini yaratadi va uning janriy unsurlariga asos solishda voqealarni tartibsiz xotiralar ko‘rinishida retrospektiv tarzda tasvirlaydi hamda o‘z-o‘zini reflektiv badiiy ifoda etish adabiy vositasi orqali realizmdan qay tariqa chekinganligini namoyish etadi.

8. “Angliya, Angliya” postmodernistik satirik romanida Barns nafaqat ingliz giperreal, iste’mol va media jamiyatining illatlari ustidan kuladi, balki shu kabi illatlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan omillarni asar bosh qahramonining rasm boshqotirmali xaritasi orqali dekonstruksiya qiladi. Shu yo‘l bilan zamonaviy ingliz jamiyatidagi illatlardan xoli asl Angliyani badiiy-estetik jihatdan yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

9. “Oxirat hissi” asari kitobxonni chalg‘ituvchi rivoya uslubi, asar voqealarining retrospektiv tarzda beqaror roviy tomonidan bayon qilinishi, asar qahramonining xotiralari asnosida o‘z-o‘zini reflektiv badiiy ifoda etishi, qilmishlariga iqror bo‘lishi, asardagi memuar, avtobiografiya va iqornoma janrlarining qorishmasi kabi xususiyatlar bilan xarakterlidir.

10. Barnsshunoslik kontekstida perspektiv yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Julian Barns ijodida animalistik obrazlar tasviri, adib romanlarining narratologik xususiyatlari, Julian Barns romanlarida zamon va makon kategoriyalarining badiiy ifodasi, Julian Barns asarlarida aktor va auktor munosabati, Julian Barns asarlarining mifopoetik xususiyatlari va boshqalar. Barnsning ijodiga oid ushbu yo‘nalishlar tadqiq etilsa, muallifning ijodiy paradigmasi yanada chuqur va teran o‘rganilgan bo‘ladi. Barns ijodi postmodernizmning eng rivojlangan davri bilan uzviy bog‘ligi bois tadqiqot ishining dolzarbligi postmodernizmning oqim sifatida rivojlanishini zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy masalalari sifatida aniqlash, uning ingliz adabiyotidagi badiiy xususiyatlarini o‘rganish, Julian Barnsning bir necha postmodernistik asarlarini postmodernizm oqimining badiiy tamoyillari orqali chuqur tahlil qilish zarurati bilan bog‘liq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

ТУРСУНОВА МУХЛИСА ВАХАБОВНА

**ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСТМОДЕРНИСТСКИХ РОМАНОВ
ДЖУЛИАНА БАРНСА**

**10.00.04 – Язык и литература народов Европы,
Америки и Австралии**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.2.PhD/Fil4834.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Махмудова Наргиза Алимовна доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Официальные оппоненты:	Икромхонова Феруза Икромовна доктор филологических наук, профессор Адилова Шахноза Рахимовна доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится «31» октября 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Фараби, дом 400). Тел: (+99871) 246-08-62; Факс: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана, Факультет зарубежной филологии (3-этаж, 3-11 аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано за № ____). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д. 4. Тел. (+99871) 227-12-24.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

И.А. Сиддикова
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

М.Г. Рабиева
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

С.Э. Камилова
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во второй половине XX века в мировой литературе возникло новое и нетрадиционное течение – постмодернизм. Данное направление оказало значительное влияние на социально-политические, религиозные, исторические и культурные аспекты развитых обществ, нашло отражение в таких областях, как музыка, архитектура, философия, искусство, литература, литературная критика и лингвистика. Постмодернизм заложил основу для формирования новых литературных явлений и жанров, таких как метапроза и исторический метароман. Металитература способствовала формированию в искусстве ряда оригинальных художественных черт, среди которых – саморефлексия персонажа, эксплицитное авторское повествование и синтез жанровых и стилистических приёмов. Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью комплексного изучения эволюции постмодернизма как литературного направления, выявления его художественных особенностей в контексте английской литературы, а также глубокого анализа произведений одного из ярких представителей зрелого постмодернизма – Джулиана Барнса – сквозь призму ключевых принципов постмодернистской эстетики.

В литературоведении, считается, что значительная часть литературных произведений второй половины XX века была создана в русле постмодернизма. Это направление стремительно приобрело популярность и получило широкое распространение в литературе стран с высоким уровнем культурного и экономического развития, принимая разнообразные формы. На протяжении почти полувека постмодернистская драма, поэзия и проза с их экспериментальной формой и содержанием вызывают устойчивый интерес исследователей и продолжают провоцировать дискуссии, в том числе относительно жанровой природы произведений Джулиана Барнса. Недостаточная степень изученности жанровой специфики его творчества подчёркивает научную значимость и актуальность настоящего исследования

Анализ произведений мировой литературы является одной из приоритетных задач современного узбекского литературоведения. Важно определить основные этапы становления и развития постмодернизма, его значимость для анализа актуальных художественных текстов, а также выявить поэтику произведений писателей-постмодернистов. Учитывая, что воспитание молодого поколения напрямую связано с характером прочитываемых ими текстов, особую актуальность приобретает изучение современных литературных произведений с целью выявления их художественно-эстетической ценности и культурного значения. В рамках популяризации как узбекской, так и мировой литературы, а также в контексте развития культуры чтения в обществе, в отечественном литературоведении прослеживается устойчивая тенденция к творческому заимствованию и адаптации современных методов и подходов, разработанных в рамках мировой научной мысли. Это способствует более глубокой интерпретации художественных текстов и расширяет

методологический инструментарий исследователя. Таким образом, в современной художественной литературе принципы репрезентации бытия, сформированные в западной постмодернистской традиции, все чаще сочетаются с ценностями и эстетическими установками восточной литературной культуры. В то же время стремление Узбекистана к глобальной конкурентоспособности в сферах науки, образования и технологий предъявляет высокие требования к уровню научных исследований, включая исследования в области литературы, ориентированные на соответствие международным стандартам¹.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных Указа Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года №ПФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Законом Республики Узбекистан от 29 октября 2019 года №ORQ-576 «О науке и научной деятельности», Указа Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года №ПФ-6108 «О мерах по развитию сферы образования и науки в новый период развития Узбекистана», Постановлением от 28 января 2022 года №ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указа Президента Республики Узбекистан от 1 апреля 2021 года № ПР-5047 «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в области науки и инновационного развития», решения ПК-128 от 20 апреля 2023 года "О мерах по ускорению комплексного развития системы образования путем повышения качества научно-методической и исследовательской работы", а также другими нормативно-правовыми документами, касающимися данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением республиканского научно-технического развития: I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

